

MADANIY MEROS OBYEKTLARINI MUHOFAZA QILUVCHI TASHKILOTLAR TARIXIDAN

Annotatsiya: Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ishlari dastlab Yevropada paydo bo'ladi. Pyotr I davrida esa Rossiya kirib keladi. O'zbekiston hududiga esa Rossiya mustamlakachiligi davrida boshlanib, sobiq Sovet ittifoqi davrida tizimli ravishda rivojlanadi. Mustaqillik davrida esa madaniy merosga bo'lgan e'tibor kuchayadi. Maqolada madaniy merosga bo'lgan e'tibor tarixiy davrlardagi rivojlanishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: arxeologiya, yodgorlik, madaniy meros, qonun, qonunosti hujjatlari, bosh boshqarma, YUNESKO, inspeksiya.

ИЗ ИСТОРИИ ОРГАНИЗАЦИЙ, ОХРАНЯЮЩИХ ОБЪЕКТЫ КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ

Аннотация: Охрана и использование объектов культурного наследия впервые появились в Европе. В состав России он вошел во времена правления Петра I. Территория Узбекистана возникла в период российского колониализма и планомерно развивалась в период бывшего Советского Союза. В период независимости возросло внимание к культурному наследию. В статье рассматривается развитие внимания к культурному наследию в исторические периоды.

Ключевые слова: археология, памятник, культурное наследие, закон, подзаконные акты, Главное управление, ЮНЕСКО, инспекция.

FROM THE HISTORY OF ORGANIZATIONS PROTECTING CULTURAL HERITAGE SITES

Abstract: The protection and use of cultural heritage sites first appeared in Europe. It entered Russia during the reign of Peter I. It began in the territory of Uzbekistan during the Russian colonial period and developed systematically during the former Soviet Union. During the period of independence, attention to cultural heritage increased. The article discusses the development of attention to cultural heritage in historical periods.

Keywords: archeology, monument, cultural heritage, law, by-laws, head office, UNESCO, inspection.

Arxeologiya yodgorliklarini muhofaza qilish g'oyasi Uyg'onish davrida antik san'at va kolleksiya to'plash ishlariga qiziqishning ortishi bilan kuchayib boradi. Buyuk Fransuz inqilobi davrida hukumat tomonidan (Konvent) madaniy va tarixiy yodgorliklar umumxalq mulki sifatida odamlar qo'lida to'plangan xususiy to'plamlar birinchi marta milliyashtiriladi (Luvr muzeyini tashkil etish haqida dekret, 1791)[1-ср.1]. 1795-yilda yodgorliklarni muhofaza qilish davlat xizmati tashkil etiladi. XIX –XX asr boshlarida xalqlarning milliy o'zlikni anglash kuchayishi bilan ko'pgina Yevropa va Amerika davlatlarida madaniy va tarixiy yodgorliklar davlat himoyasiga olinadi (1834-yilda Yunonistonda san'at yodgorliklarini olib chiqib ketishni ta'qiqlash to'g'risidagi qonun qabul qilingan, 1937-yilda Braziliyada Milliy tarixiy va badiiy merosni himoya qilish tashkiloti to'g'risidagi qonun qabul qilinadi). Shu bilan birga, Fransiya 1830-yilda, Prussiyada 1843-yilda davlat inspeksiyalari tashkil etiladi. Braziliyada esa ta'lim vazirligi homiyligida kotibiyat xizmati SPHAN tashkil etilgan. Madaniy meros yodgorliklarini himoya

qilish tartiblari dastlab Fransiya 1830-yilda, Prussiya 1887-yilda (1962-yillarda to'ldirilgan), Italiya 1902-yilda (1909-yilda va 1939-yillarda to'ldirilgan), Polsha 1918-yilda (1928-yillarda to'ldirilgan) yodgorliklarni muhofaza qilish haqidagi qonunlar qabul qilinadi. Shuningdek, ularni ilmiy tizimlashtirish, kataloglashtirish, konservatsiya va ta'mirlash ishlari ham boshlangan[2-ctp.10].

1939-1945-yillardagi ikkinchi jahon urushi davrida fashistlar varvarlarga xos ravishda shaharlar va yodgorliklarni vayron qilishadi. 1940-1950-yillarda madaniyat va tarixiy yodgorliklarni muhofaza qilish faoliyati kuchaygan. Bu davrda yodgorliklarni muhofaza qilish to'g'risida Polsha 1945-yilda (1962-yilda yangilangan), Yaponiya 1950-yilda, Misr 1951-yilda, GDRda 1952-yilda (1962-yilda yangilangan), Chexoslovakiya 1958-yilda, Yugoslaviya 1959-yilda, Braziliya 1937-yilda tartib ishlab chiqiladi va urush yillarida xarob bo'lgan yodgorliklarni ta'mirlash-tiklash bo'yicha yirik ishlar bajariladi.

Ko'proq qiymatli bo'lgan Madaniy va tabiiy obyektlarni saqlash uchun Xalqaro majburiyatlar olish g'oyasi XX asrning 60-yillarida Misrdagi baland Asvon to'g'onini qurish paytida Nubiyaning qadimgi yodgorliklarini suv bosishi xavfi munosabati bilan paydo bo'ladi. Bu Xalqaro hamjamiyat tomonidan umuminsoniyatga tegishli masala ekanligi qayd etiladi. Bu paytda Misr va Sudanda yodgorliklarni saqlash uchun mablag' yo'q edi. 1960-yilda Birlashgan millatlar tashkilotining Fan, ta'lim va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (uning shtab-kvartirasi Parijda) (keyingi o'rinlarda YUNESKO) butun dunyo mamlakatlariga yordam haqida murojaat qiladi. Qisqa vaqt ichida yirik miqdordagi mablag' yig'iladi va Nubiya yodgorliklari saqlab qolinadi.

Rossiyada qadimgi yodgorliklarni muhofaza qilish chora-tadbirlari birinchi marta Pyotr I davrida qabul qilingan. Pyotr I tomonidan 1718-yilda qadimgi noyob kam uchraydigan buyumlarni topshirish to'g'risidagi farmoni e'lon qilinadi. "Noyob kam uchraydigan" buyumlarni aniqlash, arxeologiya topilmalarini (birinchi marta arxeologiya qazishmalari Sankt-Peterburg yaqinida 1708-yilda Eski Ladogada o'tkazilgan) davlatga topshirish va maxsus tashkil etilgan muzey – Kunstkamera yig'ish asosida to'plangan[3-ctp.79-82].

Pyotrning bu faoliyati zamonaviy tarixshunoslikda turlicha sharhlanadi. Ba'zi tadqiqotchilar uning bu ishini madaniy merosni saqlashga bo'lgan davlat nuqtai nazaridan qarashgan. Boshqalari esa Pyotr I ning shaxsiy qiziqishlari bilan bog'lashadi. Nima bo'lganda ham yangi davlatning qadimgi yodgorliklarni saqlash talablarining kelgusidagi qonunchilik siyosati fundamental asoslari yaratildi[4-ctp.37].

Rossiyada XIX asr 2-yarmida arxeologiya fani ilmning alohida ko'rinishi sifatida shakllanadi. Lekin arxeologiya tashkiloti faqat poytaxtdagina mavjud edi.

Tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish tashkilotining shakllanishi quyidagicha kechgan:

1846-yilda Rus arxeologiya jamiyati;

1859-yilda Imperator arxeologiya komissiyasi;

1864-yilda Moskva Imperator arxeologiya jamiyatlari vujudga kelgan.

Arxeologiyaga ixtisoslashgan nashrlar vujudga keladi:

1859 yilda "Arxeologiya komissiyasi hisobotlari";

1899-yilda "Rossiya arxeologiyasi materiallari" va boshqalar.

1871-yilda Sankt-Peterburgda o'tkazilgan II arxeologiya syezdida "Yodgorliklarni muhofaza qilish tartibi" to'ldiriladi va tasdiqlanadi.

1911-yilda "Rossiya qadimgi yodgorliklarini muhofaza qilish to'g'risidagi" qonun loyihasi ishlab chiqiladi.

1919-1924-yillarda V.I. Lenin tashabbusi bilan 15 dan ortiq dekretlarda sovet davlatining yodgorliklarni muhofaza qilish tizimining asoslari yaratiladi.

O'zbekistonda yodgorliklarni muhofaza qilish va saqlash ishlari g'oyasi XIX asr oxirlarida yani, yurtimizdagi noyob osori-atiqalarga bo'lgan qiziqishning kuchayishi bilan yuzaga keldi. Xususan, XIX asr so'nggi choragida Afrosiyob, Eski Axsi, Koson, Buxoro hududlarida harbiylar va havaskorlar tomonidan osori-atiqalarni yig'ish va sotish maqsadida qazishma ishlarining olib

56 borilishi madaniy yodgorliklarni taqdiriga befarq bo'lmagan ziyolilar tomonidan yodgorliklarni saqlash g'oyasini ilgari surishga olib keldi. Zero, ushbu davrda antikvar buyumlarni sotish va xazina topish ilinjida arxeologik yodgorliklarda qazishma ishlarining olib borilishi 1871-yilda Turkiston ma'muriyati tomonidan o'zboshimchalik bilan qazishma ishlarini to'xtatish to'g'risida ko'rsatma chiqarishiga olib keldi. Ammo ushbu davrda yodgorliklarni qo'riqlash bo'yicha biror-bir tashkilotning mavjud bo'lmashligi ushbu ta'qiqning amalda qo'llanilishiga olib kelmadi. Keyinchalik 1876-yilda Toshkentda tashkil etilgan, 1896-yilda Samarqandda ochilgan muzeylar qisman bo'lsa-da, topilgan osori-atiqalarni yig'ish imkonini beradi.

1918-yilda V.L.Vyatkin, M.F.Mauer va B.N.Kastalskiylar tomonidan Ulug'bek madrasasi minorasini tiklash borasida maxsus komissiyasini tashkil etib, minorani saqlab qolishga muvaffaq bo'lishadi. 1919-yilda esa O.Tatevosyan tomonidan yodgorliklarni muhofaza qilish va texnik holatini tekshirish bo'yicha doimiy komissiya tashkil etiladi.

Yodgorliklarni muhofaza qiluvchi maxsus davlat organi 1920-yil 30-yanvarda tashkil etilib, ushbu organ vazifasini Turkiston Respublikasining Arxiv ishlari bo'yicha markaziy boshqarmasi qoshida tashkil qilingan tarixiy va san'at yodgorliklarini muhofaza qiluvchi maxsus qo'mita va shu yili tashkil etilgan Samarqand komissiyasi o'z zimmasiga oladi. Keyinchalik Turkiston Respublika rahbariyatining 1921-yil 23-maydagi maxsus Dekreti asosida Qo'mita va uning tarkibiga kiritilgan Samarqand komissiyasi mustaqil davlat organiga – Turkiston Respublikasi Xalk Komissarlari Sovetining Dekreti bilan muzeylar va yodgorliklar, san'at va tabiatni muhofaza qilish ishlari bo'yicha Turkiston qo'mitasi (Turkomstaris)ga aylantirildi.

Sobiq sovet hokimiyatining ma'muriy-hududiy masalada olib borgan siyosati oqibatlarini ushbu qo'mitaning tashkiliy va tuzilmaviy xarakteridagi faoliyatiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Natijada ushbu tashkilot O'rta Osiyo respublikalarining milliy chegaralanishidan keyin 1925-yildan Turkomstaris yodgorliklar va tabiatni muhofaza qilish bo'yicha O'rta Osiyo qo'mitasi nomini oldi (Sredazkomstaris). 1928-yildan esa O'zbekiston SSR MIK va XKS ning №501-sonli Qarori bilan Sredazkomstaris o'rniga yodgorliklarni muhofaza qilish O'zbekiston Qo'mitasi (Uzkomstaris) tashkil etiladi.

Ushbu tashkilot faoliyatining dastlabki davrda iqtisodiy va kadrlar muammosi tufayli keng ko'lamli ishlarni amalga oshira olmasa-da, u tomonidan yodgorliklarni muhofaza qilish, restavratsiya va konservatsiya bilan bog'liq ishlab chiqarishning ilmiy asosi yaratila boshlanadi.

1943-yilda Uzkomstarisning bekor qilinishi va uning o'rniga Me'morchilik ishlari bo'yicha boshqarmaning tashkil etilishi tarixiy yodgorliklarning taqdiriga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Zero, boshqarma qoshida tashkil etilgan Me'morchilik yodgorliklarini muhofaza qilish bo'yicha bo'lim asosan o'z e'tiborini bevosita arxitektura, shahar qurilishiga katta e'tibor berishi ko'plab tarixiy yodgorliklarni qarovsiz qolishiga va ularni buzilib ketishiga olib keldi. Faqatgina 1957-yil 30-avgustda "Moddiy madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish bo'yicha Komitet" ning tashkil etilishi ushbu mudhish holatni oldini olish imkonini berdi. Ushbu tashkilot 1961-yilga qadar faoliyat ko'rsatsa-da, u tomonidan madaniy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan yodgorliklarning sezilarli qismini saqlab qolish, ayrimlarida esa ta'mirlash ishlarini rivojlantirish, ularni ilmiy o'rganish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

1968-yil "Madaniy yodgorliklarni himoya qilish haqida" Qonuni[5] va Yodgorliklar va tasviriy san'atni muhofaza qilish bo'yicha Bosh boshqarma tashkil etiladi. Mazkur qonunga muvofiq respublika hukumati tomonidan uning qo'llanishiga doir yo'riqnoma, moddiy madaniyat yodgorliklarni qo'riqlash hududlari va ular atrofida binolar qurilishini tartibga solish haqidagi nizom, O'zbekiston hududida arxeologik qazilmalar va qidiruv ishlarini amalga oshirish huquqi borasidagi yo'riqnoma tasdiqlandi.

1979-yil 24-fevralda davlat muhofazasiga olish, ta'mirlash va konservatsiyalash ishlari hajmlarining ortib borishi tufayli O'zbekistonda madaniyat yodgorliklarni muhofaza qiluvchi yangi organ Madaniyat yodgorliklari ilmiy ishlab chiqarish Bosh boshqarmasi tuzildi (GlavNPU). Keyinchalik uning tarkibida loyihash instituti, ilmiy-restavratsiya ishlab chiqarish tashkilotlari, shu jumladan, me'moriy yodgorliklarni restavratsiya qilish, konservatsiyalash, ularning dekori bo'yicha noyob ishlarni bajarilishiga ixtisoslashgan restavratsiya korxonasi ham tashkil qilindi.

Bosh boshqarmaga qo'zg'almas va qo'zg'aladigan madaniyat yodgorliklarini saqlash ishlari, tasviriy va monumental san'atni rivojlantirish, muzey va ko'rgazma ishlarini tashkil qilish yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligini tashkil etish to'g'risida"[6]gi 2004-yil 27-sentabrdagi PF-3491-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"[7]gi 2004-yil 30-sentabrdagi 455-sonli qaroriga asosan Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy ishlab-chiqarish Bosh boshqarmasi O'zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi tuzilmasiga kiradi.

Madaniy meros obyektlarini muxofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 27-apreldagi 207-sonli qaroriga binoan tasdiqlangan "Madaniyat yodgorliklari Bosh ilmiy ishlab chiqarish boshqarmasi"ning huquqiy vorisi hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 21-iyuldagi 200-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi va uning mintaqalararo (mintaqaviy) davlat inspeksiyalari tashkil etilgan.

Bosh boshqarma apparati xodimlarining cheklangan soni 33,5 nafar, shu jumladan boshqaruv xodimlari 25 nafar etib belgilangan.

Bosh boshqarmaning jami 7 ta mintaqalararo va mintaqaviy inspeksiyalari mavjud. Mintaqalararo (mintaqaviy) davlat inspeksiyalari boshqaruv xodimlarining cheklangan soni — 59 nafar etib belgilangan.

Mintaqalararo inspeksiyalar:

Buxoro va Navoiy viloyatlari bo'yicha;
Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari bo'yicha;
Samarqand va Jizzax viloyatlari bo'yicha;
Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari bo'yicha;
Toshkent shahri, Toshkent va Sirdaryo viloyatlari bo'yicha.

Mintaqaviy inspeksiyalar:

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha;
Xorazm viloyati bo'yicha.

Maqsad va vazifalari:

Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 21-iyuldagi 200-son qarori[8]ning 6-ilovasi bilan Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasi to'g'risidagi nizom tasdiqlangan.

Bosh boshqarma O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining tarkibiy bo'linmasi hisoblanib, vazirlikka yuklatilgan moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va foydalanish sohasidagi vazifalar bevosita Bosh boshqarma yoki uning quyi turuvchi mintaqalararo (mintaqaviy) davlat inspeksiyalari orqali amalga oshiriladi.

Bosh boshqarmaning vazifalari quyidagilardan iborat:

-yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

-madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish, saqlash, targ'ib qilish, ilmiy va ilmiy-texnik tadqiq qilish, konservatsiyalash, restavratsiya qilish va ulardan zamonaviy maqsadlarda foydalanish uchun o'rganish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashish;

-madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini aniqlash, hisobga olish, muhofaza qilish, ommalashtirish va ulardan foydalanish;

-moddiy madaniy meros obyektlarining Davlat kadastrini va Arxeologik buyumlarning Davlat katalogini yuritish;

-mahobatli yodgorliklar va haykallar loyihalarini, ularning inshootlarini qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqishda Muhofaza qilish va restavratsiya qilish bo'yicha ilmiy-uslubiy kengash

- 58 hamda Mahobatli yodgorliklarni ekspertizadan o'tkazish bo'yicha Badiiy kengashlar ishlarini tashkil qilish;
- inspeksiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish va ular faoliyati ustidan nazorat qilish;
 - madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalari bo'yicha xalqaro va chet el tashkilotlari bilan hamkorlikdagi loyihalarni amalga oshirishda ishtirok etish;
 - qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.
- Bosh boshqarma o'ziga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, quyidagi funksiyalarni bajaradi:
- moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash, restavratsiya-tiklash ishlarini amalga oshirish bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini tasdiqlaydi;
 - moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun loyihalarni tasdiqlaydi;
 - moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarida ilmiy loyihalash ishlarini amalga oshiradi, konservatsiyalash, restavratsiya-tiklash va obodonlashtirish ishlarini tashkil etadi, shuningdek ushbu obyektlardan zamonaviy shart-sharoitlarda foydalanish maqsadida tadbirlarni amalga oshiradi;
 - Madaniyat va sport ishlari vazirligiga tarixiy-madaniy qiymatga ega bo'lgan obyektlarni Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlari Davlat kadastriga kiritish va undan chiqarish yuzasidan takliflar kiritadi;
 - moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlari joylashgan hududdagi shaharlar va aholi punktlarini rejalashtirish, rekonstruksiya qilish va qurish loyihalarini, shuningdek moddiy madaniy va arxeologiya merosi ayrim obyektlarining hududlarida joylashtiriladigan turli obyektlar qurilishi loyihalarini kelishadi;
 - moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarida yong'in xavfsizligiga, shuningdek texnika xavfsizligiga rioya qilinishini ta'minlash tadbirlarini amalga oshiradi;
 - arxeologik tadqiqotlar bo'yicha ilmiy hisobotlar arxivini to'playdi;
 - Moddiy madaniy meros obyektlari Davlat kadastrining avtomatlashtirilgan axborot tizimini yuritadi, shuningdek Yagona davlat kadastrlari tizimiga zarur kadastr ma'lumotlarini uzatadi;
 - moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;
 - moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasini amalga oshiradi;
 - moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini zarur darajada obodonlashtirish va saqlash bo'yicha investitsiya majburiyatlari bilan ijaraga beriladigan moddiy madaniy merosi obyektlari ro'yxatiga kiritilmagan moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini belgilangan tartibda ijaraga beradi;
 - moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini zarur darajada obodonlashtirish va saqlash bo'yicha investitsiya majburiyatlari bilan ijaraga beriladigan moddiy madaniy merosi obyektlari ro'yxatini shakllantiradi va Madaniyat va sport ishlari vazirligiga taqdim etadi;
 - restavratsiya qilinadigan obyektlarning har yillik ro'yxatini tayyorlaydi va tasdiqlash uchun Madaniyat va sport ishlari vazirligiga kiritadi;
 - O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi taqdimnomasiga binoan arxeologlarga arxeologiya obyektlarida arxeologik qidiruvlar, qazish va nazorat ishlarini amalga oshirishga ruxsatnomalar berish uchun hujjatlarni tayyorlaydi, arxeologik tadqiqotlar bo'yicha ilmiy hisobotlarni qabul qiladi va ilmiy hisobotlarning arxivini to'playdi va Madaniyat va sport ishlari vazirligiga taqdim etadi;
 - moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarida restavratsiya-tiklash, konservatsiya ishlarini olib borishda zamonaviy texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarini qo'llash, yangi materiallar va konstruksiyalarni joriy qilishni ta'minlaydi;
 - moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarida konservatsiyalash, restavratsiya qilish, tiklash va obodonlashtirish ishlari olib borilishini ta'minlaydi;

-inspeksiyalar faoliyatini muvofiqlashtirishni amalga oshiradi, shu jumladan inspeksiyalarga moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini aniqlash, tadqiq etish, hisobga olish, restavratsiya qilish, foydalanish va ommalashtirish yuzasidan zarur yordamlarni ko'rsatadi.

Bosh boshqarma va uning inspeksiyalari faoliyati quyidagi manbalar hisobidan moliyalashtiriladi:

-o'z daromadlari;

-O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari;

qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Bosh boshqarma va uning inspeksiyalarining o'z daromadlarini shakllantirish manbalari quyidagilar hisoblanadi:

-moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda ijaraga berishdan tushadigan mablag'lar;

-Bosh boshqarma balansida bo'lgan moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlariga tashrif buyurishdan va Bosh boshqarma tomonidan madaniy meros obyektlariga uyushtirilgan ekskursiyalardan tushgan mablag'lar;

-Bosh boshqarma va uning inspeksiyalari tomonidan moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlariga o'tkazilgan tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazishdan tushgan mablag'lar;

-xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlarning, O'zbekiston Respublikasining rezidentlari va norezidentlari – yuridik va jismoniy shaxslarning grantlari, kreditlari va homiylik yordamlari;

-qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa tushumlar¹ tashkil etadi.

Xulosa. Shunday qilib madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi islohotlar natijasida mavjud boshqaruv tizimi ham, uning boshqaruv tartibi ham o'zgarib boradi. Bu esa o'z navbatida sohaning ijobiy tomonga o'zgarishiga olib kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахметова Е.А. История охраны объектов культурного наследия (памятников археологии), Стр.1.

2. Рубаник К.П. Международно-правовые проблемы ЮНЕСКО. – М., 1969, Стр. 10.

3. Лапшин В.А. Борьба за охрану памятников археологии в России во второй половине XIX – н. XX вв. // Культурное наследие Российского государства: Сб. ст. / РАН Ин-т ист. матер. культуры, ВООПИиК (Ленинградское отделение); Сост. и отв. ред. Кирпичников А.Н. – СПб. – 2002 – Вып 3, Стр. 79-82.

4. Культурная политика России. История и современность. Два взгляда на одну проблему. – М., 1998, Стр.37.

5. Маданий ёдгорликларни химоя қилиш ҳақида. Ўзбекистон ССР қонуни. 1968.

6. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligini tashkil etish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 27 sentabrdagi PF-3491-son Farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 30-sentabrdagi 455-sonli qarori.

8. Moddiy madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2014-yil 21-iyul, 200-son.